



**BUXORO VILOYATI RADIOSINING TASHKIL TOPISHI
TARIXI VA FAOLIYATI**

Murodjon Rahmatullayev

Buxoro davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Muhim axborot vositasi sifatida radio bugungi kunda nafaqat axborot tarqatish, balki ma'naviy-ma'rifiy, ko'ngilochar, omma fikrini shakllantirish kabi vazifalarni bajarib kelmoqda. Bundan bir asr avval keng ommaga kirib borgan radioaloqa vositasi yillar davomida yanada takomillashdi. Turli ommaviy axborot vositalari ta'siri ostida ushbu aloqa-axborot vositasi negizida aloqa-axborot vositalarining yangi avlodlari kompyuter, mobil aloqa vositasi, planshetlar paydo bo'ldi. XXI asr boshidan tinglovchilar bilan bevosita bog'lanish va jonli efirga simsiz uzatish radiotexnikalari, mobil telefonlari orqali kanallarni tinglash imkoniyatlari kengaydi. Hozir inson qay makonda bo'lmasin, radio tinglash va joylardan turib studiyalar bilan bog'lanish imkoniyatlari mavjud.

Kirish. Buxoro radiosi tarixi haqida fikr yuritilganda, uning 1927 yil 23 oktyabrda tashkil etilganligi arxiv ma'lumotlarida keltiriladi. 1930 yil 23 yanvarda yangi Buxoro, G'ijduvon tumani, Bahouddin qishloqlari namunali hudud sifatida belgilanib, mazkur qishloqlarda 200 ga yaqin radio nuqta o'rnatilgan.

1921 yil, 1 avgustda Registon maydoni ro'parasidagi amirning sobiq rezidensiyasi – Arkda 2 kilovattlik radiostansiya quriladi. Radiotexnik Yegorov Toshkent, Samarqand, Chorjo'y va Kushkadan axborotlar qabul qilib olib, uni "Byulleten" tariqasida mashinkada yoki qo'lda bir necha nusxada ko'paytirib, Buxoro Respublikasi hukumati xodimlari o'rtasida tarqatgan.

1923 yil, 12 oktyabrda Eski Buxoro shahrida 10 kilovatt, sharqiy Buxoroda 5 kilovatt quvvatga ega bo'lgan radiostansiyalar qurilib ishga tushiriladi va ular mutaxassislar, texnika vositalari bilan ta'minlanadi. Keksa jurnalist, "Buxoro haqiqati" gazetasining sobiq muharrirlaridan biri Rustam Abdurahmonovning tasdiqlashicha, 1924 yildan 1926 yilga qadar Buxoro shahrida radio-eshittirishlar redaksiyasi tashkil topadi. Redaksiya bir necha o'n tochkadan iborat karnaylar orqali qisqa axborotlar bergan va o'sha paytdagi xalq hofiz-xonandalari domla Halim Ibodov, Qori Komil, Levicha Boboxonovlar ishtirokida Buxoro xalq Shashmaqomi va kuylarini targ'ib etgan. Zarafshon okrugi o'rnida Buxoro oblasti tashkil topganligi viloyat radiosining muttasil ishlashini ta'minlagan. 1938 yildan hozirga qadar eshittirishlar mundariyasi, mavzulari, janrlari, g'oyaviy-siyosiy saviyasi qadam-baqadam o'sib, takomillashib bordi. Dastlab faqat o'zbek tilida eshittirishlar tayyorlangan bo'lsa, keyinroq rus, 1968 yildan esa tojik redaksiyalari tashkil etildi. Ularning eshittirishlari rang-barang, dilkash va diqqatga sazovor bo'la boshlagan.





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

“Buxoro haqiqati” (hozirgi “Buxoronoma”) gazetasining 1965 yil 7 maydagi 88-sonida Buxoro oblast radioeshittirish komiteti raisi A. Nurmammedov o‘z maqolasida Buxoro radiosi o‘z eshittirishlarini “Buxorodan gapiramiz!” degan so‘zlar boshlaganini yozadi. Buxoro viloyati davlat arxivida viloyat radioeshittirish qo‘mitasining hujjatlari mavjud bo‘lib, bu hujjatlar 1938-1991 yillarni o‘z ichiga oladi. Viloyat davlat Arxivi saqlov xonalaridagi manbalarga ko‘ra, Buxoro radiosi 1938 yillarda o‘zbek, tojik va rus tillarida: “Guzar” rukni ostida soat 16:00 dan 16:30 gacha hamda 23:00 dan 24:00 gacha, kech soat 2:00 dan 2:40 ga qadar to‘g‘ridan-to‘g‘ri efirlar uzatilgan. Demak, 1938 yilgacha ham Buxoroda dastlabki radioeshittirishlar, qabul qiluvchi radiostansiyalar, radionuqtalar faoliyat ko‘rsatgan.

1978 yili Buxoro radiosi Buxoro oblastining 533 ming tonnalik “oq oltin” xirmonini bunyod etganligi haqida paxtakorlar uchun eshittirish bergan. Shu bilan birgalikda Buxoroda paxtani mashinada terish rejasi muvaffaqiyatli bajarilgani alohida qayd etilgan. Birinchi marta 266 ming tonna paxta “po‘lat etak”larda terib olingani radiodan e‘lon qilingan. Shu o‘rinda Buxoro oblast xirmoniga Navoyi rayoni – 64 ming 20 tonna, G‘ijduvon rayoni – 59 ming 240 tonna, Vobkent rayoni – 49 ming 740 tonna, Sverdlov rayoni – 48 ming 320 tonna, Shofirkon rayoni – 47 ming 870 tonna, Romitan rayoni – 47 ming 690 tonna, Qorako‘l rayoni – 44 ming 220 tonna, Buxoro rayoni – 43 ming 930 tonna, Peshko‘ rayoni – 43 ming 610 tonna, Qiziltepa rayoni – 37 ming 160 tonna, Olot rayoni – 24 ming 750 tonna, Kogon rayoni 21 ming 650 tonna, Buxoro shahri 800 tonna oq oltin terib topshirani haqida paxtakorlarga ma‘lumot berilgan.

Buxoro radiosi arxivi juda boy bo‘lib, magnit lentalarida mashhur san‘at ustalari ijro etgan mumtoz qo‘shiqlar, yozuvchi va shoirlarning ovozlari, radioinsse-nirovkalar saqlanmoqda. Keyingi yillarda ushbu nodir xazinani raqamlashtirish ishlari olib borilmoqda. Radioda dastlab eshittirishlar to‘g‘ridan-to‘g‘ri efirga uzatilib, joylardagi radiokarnaylar orqali tinglab borilgan. Dastlabki yillarda efir setkasidan so‘nggi yangiliklar, gazetalar sharhi, gramplastinkalar orkali beriladigan konsert dasturlari, adabiy eshittirishlar va bolalar uchun mo‘ljallangan dasturlar o‘rin olgan edi. Texnik taraqqiyot tufayli sohada bosqichma-bosqich imko-niyatlar kengayib bordi.

1960-1970 yillarda Buxoro radiosida ikkita muharririyat bo‘lib, eshitrishlar o‘zbek va rus tillarida olib borilgan. 1980 yillarda tojik va qozoq tili muharririyatlari ham tashkil etilgan. 1986 yil yangi Radio uyi qurib bitkazilib, zamonaviy texnik uskunalar bilan jihozlangan.

Sovet ittifoqi davrida Buxoro radiosi asosan KPSS Markaziy komitetining plenumi qarorlarining bajarilishi, paxta va boshqa qishloq xo‘jaligi maxsulortlari yetishtirishda sotsialistik musobaqa, ishlab chiqarish aktivligini kuchaytirish, tinglovchilarning siyosiy bilimlarga bo‘lgan qiziqishini oshirishga xizmat qildi.

XX asrning 60-yillarida G‘ijduvon tumanida maxsus radio eshitirish redaksiyasi tashkil etilgan. Avvalida u aloqa bo‘limi ixtiyorida bo‘lib, mashinistka, diktora, redaktor uchun oylik maosh to‘lar, radio redaksiyani bino, magnitofon, qog‘oz bilan ta‘minlar edi.





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

Ularning faoliyatiga metodik yordam ko'rsatish, berilayotgan eshittrishlar saviyasini nazorat qilish tuman firqa komiteti zimmasiga yuklatildi. Shu maqsadda radio televedenie komiteti huzurida tuman radiosini nazorat qiladigan alohida redaksiya tuzilgan. 1968-1970 yillarda rayon radio eshittirish redaksiyalari viloyat radio va televedeniesi tasarrufiga o'tkazildi. 1978 yilda esa tuman gazetalari ixtiyoriga topshirilgan. G'oyaviy siyosiy rahbarlik ro'znoma redaktori zimmasiga yuklatilgan. 1993-1995 yillarda radio redaksiyasi ishlari bozor iqtisodi sharoitida og'irlashgan. 1995 yilda G'ijduvon radiosi faoliyati to'xtatilgan. G'ijduvon tumani radiosida Zarif Sa'diev, Mardon Ro'ziev, Ortiq Toshev, Xosiyat Baqoeva, Gulsara Shamsieva, amrullo Abdullaev va boshqalar redaktorlik, suhandonlik vazifalarini bajarishgan. Buxoro viloyatining 11 tumanida ham radio eshitrish redaksiyasi faoliyat yuritgan. Jumladan, Kogon tumanida yarim asr davomida radio faoliyat yuritgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1992 yil 7 yanvarda e'lon qilingan "O'zbekiston Respublikasi televedenie va radioeshitrish davlat komiteti O'zbekiston Davlat teleradioeshittirish kompaniyasiga aylantirish to'g'risida"gi Farmoniga asosan O'zbekiston Respublikasi televedenie va radioeshitrish davlat komiteti qayta tashkil etilib, O'zbekiston Davlat teleradioeshittirish kompaniyasiga aylantirildi. Mazkur farmonga muvofiq, radio va televedenie va unga qarashli korxona hamda tashkilotlarning barqaror ishlashi yo'lga qo'yildi. Shu maqsadda 1992 yil 11 martda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Davlat teleradioeshitrish kompaniyasi to'g'risida"gi 123-Qarori qabul qilinib, O'zbekiston Davlat teleradioeshitrish kompaniyasi to'g'risidagi Nizom tasdiqlangan.

Shu tariqa O'zbekiston Davlat teleradioeshittirish kompaniyasi televidenie va radio eshittirish davlat komitetining huquqiy vorisi bo'lib qoldi hamda uning faoliyatini yanada mukammalroq davom ettirishi belgilandi.

Teleradiokompaniya xalqaro hayotni yoritish, davlatlararo va tashqi iqtisodiy aloqalarni, shuningdek xorijga vatandoshlar bilan aloqani mustahkamlash, yaxshi qo'shnichilik, o'zaro manfaatli hamkorlik o'rnatish ishida faollik ko'rsatmoqda.

Mustaqillikka erishganimizdan so'ng ommaviy axborot vositalari, jumladan, radio va televidenie xodimlari oldida ham mas'ul vazifalarni qo'ydi. Eng avvalo, mustaqilligimizga erishguncha bo'lgan davrdagi balandparvoz, deb dabdabali, tinglovchi ensasini qotiradigan mahdu sonalardan voz kechish, xalqqa, haqiqiy hayotga yaqinlashish, odamlar qalbiga quloq solish, ularning dardu tashvishlari bilan yashash masalasi jurnalistning asl vazifasi hamda vijdoniy burchiga aylandi. Mustaqillikni to'la anglash, uning mohiyatini his etish uchun dastlab ma'naviyatimiz, o'tmishimiz, milliy qadriyatimiz va o'zbek xalqining qadim tarixini Buxoro viloyati aholisiga yetkazish bosh vazifa etib belgilandi. Shu maqsadda Buxoro viloyat radiosida "Meros" radiojurnali tashkil etildi. "Meros" radiojurnalida shoir Sadriddin Salim Buxoriy tomonidan tarix va madaniyatga oid 50 ga yaqin radioeshittirish tayyorlandi. Xususan, Abduxoliq G'ijduvoniy, Bahouddin Naqshband, Mir Kulol, Xoja Orif Mohitobon, Xo'ja Ismat





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

Buxoriy kabi ko'plab tasavvuf namoyondalari haqida, shuningdek, Buxoro nomini olamga mashhur etgan umri boqiy obidalar xususida tayyorlagan radioeshittirishlari Buxoro qiloyati tinglovchilariga juda manzur bo'ldi.

Istiqlol nafaqat ma'naviy, balki, iqtisodiy va ijtimoiy hayotga ham katta o'zgarishlar kiritdi. Bir paytlar o'zbek tili lug'atidan o'chib ketgan "tadbirkor", "savdogar", "tijoratchi", "xususiy mulk", "shaxsiy mulk" kabi so'zlar iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda yetakchi o'rin tutadigan vazifalarni bajaruvchi mezonlar sifatida eshittirish va ko'rsatuvlarning mohiyatini belgilab berdi. Bu borada Buxoro viloyati radiosining "Xususiylashtirish – davr talabi", "Shaxsiy mulk – boqiy mulk", "O'zbekiston – Vatanim", "Mahallam – uyim" ruknlari muhim o'rin tutdi. Buxoro radiosida yoshlar masalasi dasturlarning asosiy e'tibor qaratiladigan mavzularidan biri hisoblanadi. O'zbek tilidagi "Buxoro yoshligi", tojik tilidagi "Javoni" radiojurnallari, rus tilidagi "Molodyojnaya programma"da viloyat yoshlari amalga oshirayotgan bunyodkorlik ishlari, ularning hayot tarzlari, kelajak sohiblariga oid muammolar muntazam yoritilib borilmoqda. Radio dasturlarini shu kun talabiga mos, shu zamon vaziyatiga xos qilib tayyorlanishida Nasrullo Fozilov, Xadicha Ramazonova, Asadjon Gulov, Shukrullo Faridov, Rinat Tachkin, Vicheslav Em, Olima Mirzaeva, Hamida Nasriddinova kabi ijodiy, Lola Bafoeva, Shuhrat Sapaev kabi texnik xodimlarning xizmatini alohida qayd etish lozim.

O'zbekistonda milliy so'm muomalaga kiritilganiga qadar kupon tizimidan foydalanilgan edi. Shu paytda Buxoro radiosiga viloyat ahli murojaat qilib, bu borada tushuntirish berishni so'ragan. Shunda viloyat radiosi kunning eng muhim xabari O'zbekistonda kupon tizimining joriy etilishi va ayrim maxsulotlarning kuponga sotilishi xususida rasmiy xabarni bergan.

Radio orqali kupon qaysi maxsulotlar uchun ishlatilishi, kuponsiz nimalar olish mumkinligi tushuntirilgan. Bu paytda oziq-ovqat maxsulotlariga talon ham joriy qilingan edi. Un, makaron maxsulotlari, gurunch, o'simlik moyi, shakar, tuxum, go'sht, dutlangan go'sht, aroq, kir sovun, kalish, chit va satin, bolalar kiyimlari, kelin-kuyovlar uchun ajratilgan maxsulotlar, dori-darmonlar kupon bilan sotilganligiga oid ma'lumotlar viloyat arxivida saqlanmoqda.

Kupon tizimini joriy qilinishidan maqsad nima bo'lganligi xususida esa, quyidagi ma'lumotlar radio orqali tushuntirilgan: "Ko'p hamdo'stlik davlatlarda narx-navoning oshib ketishi yoki maxsulot tanqisligi ko'pchilik odamlarni O'zbekistonga oziq-ovqat maxsuloti uchun kelishga majbur qilmoqda. Rossiyada maoshlar oshirildi, imtiyozlar ko'paytirildi, biroq do'konlar bo'm-bo'sh. Pulini maxsulotga almashtirishni istagan xaridor, O'zbekistoga kelib, uning shahar va qishloqlaridan maxsulotni olib ketmoqda. Oqibatda bizning do'konlarda ham maxsulot taqchilligi yuzaga kelmoqda. Shunday og'ir sharoitda xalqqa sotiladigan maxsulotni yashirib, tanish-bilishchilik qiladigan yoki ko'p pul bergan boshqa davlatlarning fuqarolariga maxsulotlarni sotib yuborayotgan kimsalarga qarshi chora ko'rish maqsadida kupon tizimi joriy qilindi".





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

Mustaqillikning dastlabki yillarida Buxoro radiosi orqali uzatilgan “Jinoyat jazosiz qolmaydi” mavzusidagi radioeshittirishda viloyatda jinoyatchilikni oldini olish borasidagi qilingan tezkor tadbirlar xalqqa yetkazilib turilgan. 1992-1993 yillarda Buxoro viloyatida jinoyatchilik olamida o‘ziga xos bir xafli va ayanchli bo‘lgan halqa shakllangan edi. Ular o‘g‘rilik, bosqinchilik, giyohvandlik singari jinoyatlarni sodir etar edilar.

Shu paytda Buxoro radiosi viloyat aholisiga qonun ustivor bo‘lgan demokratik davlat tuzishga harakat qilinayotgani, adalat tantana qilib aybdorlar o‘ziga yarasha jazoni olishlari, qonun mukammal bo‘lgandagina odamlar o‘rtasida diyonat, insof, o‘z haqqiga sabr-qanoat qilishi tuyg‘ulari ustivor bo‘lishi haqida o‘z dasturlarida muntazam tushuntirish berib keldi.

Buxoro shahar Fayzulla Xo‘jaev tumani ichki ishlar bo‘limi boshlig‘i, militsiya podpolkovnigi Ne‘mat Burxonov “Jinoyat jazosiz qolmaydi” radioeshittirishida Buxorodagi jinoyatchilik va uni oldini olish borasida quyidagi fikrlarni bildirgan: “O‘tgan 1993 yilda Buxoro viloyati hududida 1253 marta shaxsiy mulklarni o‘g‘irlash, 305 marta davlat mulkini o‘g‘irlash holatlari qayd etildi. Fuqarolarning kunduzi ishda bo‘lishlari va uylarining qarovsiz qoldirilayotganidan foydalanayotgan jinoyatchilar shaxsiy mulklarni o‘g‘irlab ketmoqdalar. Viloyatda bu turdagi jinoyatchilik 1992 yilga nisbatan anchaga kamayishiga erishildi”.

Buxoro shahar Fayzulla Xo‘jaev tumani ichki ishlar bo‘limi boshlig‘i ma’lumotiga ko‘ra 1993 yilda Buxoro viloyatida avtotransport vositalarini o‘g‘irlab ketish avj olgan. Fayzulla Xo‘jaev tumani ichki ishlar bo‘limi jinoyat qidiruv xodimlari tomonidan mahorat bilan qo‘lga olingan jinoiy guruhlar tomonidan sodir etilgan 35 ta jinoyat fosh etilgan.

1994 yili Buxoroyi sharifning gavjum go‘shasi “Registon” maydonida, 1995 yili Ibn Sino nomidagi Madaniyat saroyida, 1996 yili hazrat Bahouddin Naqshband ziyoratgohida radio tarixida birinchi marta radiomarafonlar o‘tkazilgan. Keyinchalik bu tadbirni yilida ikki maro-taba o‘tkazadigan bo‘ldi. Qator korxona, tashkilot, idora va xalq ommasidan behisob xayr-ehsonlar ko‘rsatilar edi. Shu xayriyalar hisobidan Buxoro shahri markazidan oqib o‘tadigan “Shohrud” kanali tozalandi. Bahouddin Naqshband ziyoratgohi qisman ta’mirlandi. Labihovuz ansambli qayta rekonstruksiya qilinib, katta hajmda tozalik, obo-donlashtirish ishlari amalga oshirildi. Qabristonlar obodonchiligiga ham shu hisobdan moliya bo‘limi mablag‘ ajratdi. Ayollar internat-uyidagi 200 nafar onaxonlarga mablag‘ ko‘chirildi. Bir necha sunnat to‘ylari o‘tkazildi. Shuningdek, Turki Jandiy, Xo‘ja Aspgardon, Mirzo Usmon ziyoratgohlari hisob raqamiga ham mablag‘ ko‘chirildi.

1995 yil Buxoro viloyat radiosining “Viloyat yangiliklari” dasturida

Viloyat hokimligida bo‘lgan yig‘ilish eshittirilgan. Bu yig‘ilishda Oliy, o‘rta maxsus bilim yurtlarida kirish test sinovlarining yuqori saviyada o‘tkazilishi, poraxo‘rlik, va firibgarlik kabi holatlarni oldini olish uchun huquq-tartibot organlarini mas’uliyatini





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

oshirish haqida soʻzlagan. Shuningdek, yigʻilishda Jondor, Olot, Peshkoʻ, Vobkent tumanlarida kunlik don topshirish rejalari, barcha resurslar mavjud boʻlishiga qaramay bajarimayotganligi tanqid qilingan. Viloyat hokimi gʻoʻza maydonlarini sugʻorishda Buxoro, Vobkent, Jondor, Kogon, Qorovulbozor, Olot, Peshkoʻ tumanlardagi koʻplab jamoa xoʻjaliklarida suvni tajashda, gʻoʻza mahalliy oʻgʻit va sharbat kiritishda eʼtiborsizlikka yoʻl qoʻyilayotganligi qattiq tanqid qilingan. Yigʻilish soʻngida 1994 yilgi yuksak saviyada badiiy publitsistik asarlar uchun “Buxoro haqiqati” gazetasi bosh muharriri Toshpoʻlat Ahmadga “Oʻzbekiston jurnalistlar uyushmasi diplomi hamda koʻkrak nishoni tantanali ravishda topshirilgan.

Buxoro viloyat radiosi 1995 yil 4 iyulda “Buxorodan gapirasiz” dasturida Buxoro tralleybus boshqarmasining boshligʻi Xolnazar Quvvatov bilan suhbat uyushtirgan. Suhbat jarayonida jurnalist tomonidan Buxoro ahli yoʻllarda tralleybuslarni kutib vaqt oʻtkazayotgani va boshqa muammolar yuzasidan berilgan savollarga boshqarma boshligʻi quyidagicha javob bergan: “Tralleybuslar faqat Rossiyada ishlab chiqariladi, ehtiyot qismlari ham Rossiyadan keltiriladi. Yaqinda viloyat hokimi oʻz qarori bilan tralleybus boshqarmasiga 2 million soʻm pul ajratdi. Agar shu mablagʻlar bizga yetib kelsa, biz hamma muammolarimizni bartaraf etib, bundan ham yaxshi xizmat qilamiz. Bizga yetishmayotgan ehtiyot qismlaridan asosan, shinalar juda taqchil boʻlyapti. Shu sababli 12 ta taralleybus ishlamay turipti. Bitta shina 18-20 ming soʻm turadi, mablagʻ yoʻqligi sababli bizlar bunday shinalarni olib bilmayapmiz”.

Mustaqillikning dastlabki oʻn yilida bozor munosabatlariga oʻtish jarayoni tufayli Buxoro viloyatida ham ijtimoiy-iqtisodiy sohada qator muammolar mavjud boʻldi. Davlat bosh islohotchi rolini oʻz qoʻliga olishi tufayli birin-ketinlik bilan, bosqichma-bosqich bu kabi muammolarni bartaraf etildi. Jumladan viloyat radiosi faoliyatini tashkil etish va uni yangi bosqichga chiqarish borasida qator ishlar amalga oshirildi.

1997 yildan boshlab Buxoro viloyatida roadioning simli tarmoqlari tugatiladi. Natijada bir muddat qishloq ahlining mahalliy eshittirishlarga boʻlgan ehtiyoji qondirilmay qoladi. Mahalliy eshittirishlar uzun diapazonli radiotoʻlqinlar orqali efirga berila boshlagandan keyin tinglovchilar eshittirishlarni priyomniklar vositasida eshita boshladilar. 2006 yil yanvaridan boshlab, Buxoro viloyat radiosi eshittirishlarini FM – 101,2 radiotoʻlqinlari orqali efirga uzatidayotgani tinglovchilarning safini ancha kengaytiradi.

Buxoro viloyat radiosida Obil Hamroev, Inobat ochilova, Rinat Tachkin, Xolida Gimranova va boshqa radiojurnalistlar tomonidan tayyorlangan “Asr sadosi”, “Yoshlar ovozi”, “Meros”, “Subbotniy kaleydoskop” kabi eshittirishlar koʻplab tinglovchilarga manzur boʻlgan.

Buxoro viloyat radiosi FM – 103,9 (“Yoshlar” radiokanali) toʻlqinida har kuni 2 soat hajmda oʻzbek, rus, tojik tillarida eshittrishlarni efirga uzatmoqda. 2018 yilda Buxoro viloyat radiosidagi boshqaruv pulti zamonaviy Behringer miksher pulti bilan almashtirildi. Shuningdek, 2 ta Inter Pentium G3240 kompyuteri hamda 2 ta Dreyer va mikrafonlar oʻrnatilib, montaj xonasi toʻliq taʼmirlangan.





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

2018 yil “Zamondosh” radio eshittirishida boshlovchi Zuxro Ramazonova tomonidan Buxoro viloyatida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohatlar va o‘zgarishlar haqida ma’lumotlar berildi. 2020 yil Buxoro radiosida “Jarayon”, “Ekologiya va biz”, “Adabiyot bo‘stoni”, “Umr karvoni”, “Salomatlik soati”, “Sirli qo‘ng‘iroq”, “Foydali maslahatlar” kabi eshittirishlar aholiga manzur bo‘lgan.

“Jarayon” axborot dasturida 2020 yil 24-26 fevral kunlari “Taraqqiyot strategiyasi” markazi ijrochi direktori E.Tulyakov, Prezident Administratsiyasi huzuridagi Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi direktorining o‘rinbosari U.Abidxo‘jaev va Strategik va mintaqalararo tadqiqotlar instituti markazi rahbari B.Mustafoevdan iborat O‘zbekiston delegatsiyasi Germaniyada ishchi tashrif bilan bo‘lganligi haqida muhim axborot beriladi. O‘zbekiston Germaniya savdo aylanmasi 2018 yili 772 million AQSh dollaridan ortgan bo‘lib, bu 2017 yildagi 619,9 million dollarga nisbatan 24,5 foizga ko‘p bo‘lgan. 2019 yilda esa bu ko‘rsatgich 980,1 million dollarga yetgani va 2028 yilga nisbatan 27 foiz o‘shishga erishgani xususida rasmiy xabarni e‘lon qilgan. Shuningdek, xorij xabarlar haqida ham muhim ma’lumotlar aholiga yetkazilib turildi.

“Qishloq hayoti” radio eshittirishida Buxoro viloyatida aholi tomorqalardan samarali foydalanish, qolaversa, issiqxona sharoitida oziq-ovqat maxsulotlari yetishtirishni ko‘paytirish borasida qiziqarli maslahatlar berilgan. Bozorlar to‘kinligi va arzonligini ta‘minlash barobarida oilalar daromadini oshirish hamda xavfsiz va sifatli mahsulotlar yetishtirishdagi dehqonlar tajribalari aholiga yetkazilgan.

2022 yilda viloyat hokimligi tomonidan ajratilgan va teleradiokompaniyaning o‘z mablag‘lari hisobidan 2 Kvtlik radiouzatkich xarid qilindi. Viloyat radiosi endi o‘z eshittirishlarini 18 soat davomida efirga uzatish imkoniyatiga ega bo‘ldi. Tayyorlanadigan eshittirishlar-ning yuqori texnik va badiiy saviyasini ta‘minlash maqsadida zamonaviy mikrofonlar, audiomiksher, montaj kompyuteri va boshqa jihozlar joylashtirilgan yangi studiya barpo etildi. Endi muxbirlarning efirga to‘g‘ri-dan-to‘g‘ri chiqishlari va radiotinglovchilar bilan bevo-sita jonli efirda muloqotga kirishishlari uchun yetarli sharoitlar yaratildi. “Buxoro” radiosining efir jadvalidan turli mavzudagi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, ko‘ngilochar va musiqiy dasturlar, aholining turli qatlamlari uchun mo‘ljallangan dasturlar joy olgan. Bir so‘z bilan aytganda, viloyat radiosi yillar davomida xalqimizga xizmat qilib keldi va xizmat qilishda davom etmoqda.

Buxoro viloyat radiosi “Axborot” dasturida 2023 yil 25 dekabr kuni viloyat hokimligining navbatdagi sayyor qabuli Peshko‘ tumanida bo‘lib o‘tganligi haqida ma’lumot beriladi. Ishlarni “mahallabay” tizimda tashkil etish, aholi bilan yuzma-yuz muloqot qilish, ularni muammolarinitinglash, fuqarolar tomonidan ko‘tarilayotgan katta-kichik muammolarni imkon qadar joyida bartaraf etish masalalari ko‘rib chiqilgan. Buxoro viloyat hokimi Botir Zaripovning navbatdagi qabuli Qorako‘l tumanidagi “Yangi Zamon” mahalla fuqarolar yig‘inida bo‘lib o‘tadi. Shunda aholini qiynayotgan muammolar joyida hal qilinganligi xususida ommaviy axborot vositalari orqali keng yoritilgan.





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

Buxoro radiosi “Yilnoma” dasturida 2023 yilda Buxoro viloyati madaniy hayotida yuz bergan o‘zgarishlar va boshqarma tomonidan amalga oshirilgan ishlar sarhisobi aytib o‘tiladi. Shunda Buxoro viloyati madaniyat boshqarmasi boshlig‘i Sh.Tilavov quyidagilarga to‘xtaladi: “Buxoro viloyatida 49 ta madaniyat markazlari mavjud. Xalq ijodiyotining qadimiy an‘analarini tiklash, targ‘ib qilish maqsadida 57 ta xalq unvoniga ega badiiy havaskorlik jamoalariga turli yoshdagi hamda turli kasb egalaridan iborat 900 nafardan ortiq havaskor qatnashchilar jalb qilingan. Shuningdek, madaniyat tizimidagi ta‘lim muassasalari hamda madaniyat markazlarida 7780 nafar yoshlar turli xil qo‘shimcha to‘garaklarga ishtiroki ta‘minlandi”.

Xullas, o‘tgan yillar davomida Buxoro radiosida faoliyat yuritayotgan ko‘plab jurnalist xodimlar tashabbuskorligi natijasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri efir tashkil qilinib, davlat idoralari va aholi o‘rtasida ochiq muloqotlarning yo‘lga qo‘yilishiga erishildi. Buxoro viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy sohalarga oid mavzularda tayyorlangan ko‘plab ko‘rsatuv efir yuzini ko‘rdi. Buxoro radiosida efir soatlari ko‘paydi, radiomahsulotlar sifat jihatda yaxshilandi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Ўзбекистон миллий телерадиокомпанияси замон билан ҳамқадам. – Тошкент: “Dizayn-Print”, 2022. – Б.200.
2. Аминов Ф. Бухоро вилоят телерадиокомпанияси тарихидан лавҳалар. Бухоро телерадиокомпанияси: Кеча ва бугун. – Бухоро: Дурдона, 2022. –Б.10.
3. Бақоев М. Ёйждувоннома (Ёйждувон тарихидан лавҳалар) – Тошкент: “Янги аср авлоди”, 2001. –Б.158.
4. Ражабов Қ., Рашидов У., Рашидов О. Ёйждувон тумани тарихи. – Тошкент: “Tafakkur”, 2015. – Б.49.
5. Бақоев М. Ёйждувоннома (Ёйждувон тарихидан лавҳалар) – Тошкент: “Янги аср авлоди”, 2001. –Б.159.
6. Солиев Б., Шодиев С., Рўзиев Ч. Когон: замон – макон – давр сисиласида. – Бухоро: “Бухоро нашр”, 2023. – Б.237.
7. Ўзбекистон Миллий архиви. М-57 фонд, 1-рўйхат, 1-ййғма жилд, 4-варақ.
8. Shodiyev, J. J. (2023). THE ROLE OF SCIENTIFIC THINKING AND MENTAL DEVELOPMENT IN IMPROVING HUMAN DEVELOPMENT AND VALUE. Innovative Development in Educational Activities, 2(9), 251-261.
9. Shodiyev, J. J. (2023). THE ROLE OF THE NATIONAL IDEA IN INCREASE OF HUMAN VALUES. Innovative Development in Educational Activities, 2(7), 616-625.
10. Jurakulovich, S. J. (2023). PHILOSOPHICAL VIEWS OF SAGES ON HUMAN VALUES AND GLORIFYING HIM. THEORY AND ANALYTICAL ASPECTS OF RECENT RESEARCH, 2(16), 229-238.





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC
SOLUTIONS

11. Шодиев, Ж. Ж. (2023, June). ЗНАЧЕНИЕ ИСТОРИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ В СОЗДАНИИ ФУНДАМЕНТА ТРЕТЬЕГО ВОЗРОЖДЕНИЯ И ЕГО ЗНАЧЕНИЕ В УКРЕПЛЕНИИ ЧЕЛОВЕЧЕСКИХ ЦЕННОСТЕЙ. In INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE (Vol. 2, No. 15, pp. 124-130).
12. JJ Shodiev. A STEP TOWARDS HUMAN DIGNITY. GOLDEN BRAIN 1 (24), 59-67.
13. Viloyat teleradiokompaniyasi: bugun va ertaga // “Buxoronoma”. 2007 йил 28 июнь. 51-сон.
14. Ўзбекистон миллий телерадиокомпанияси замон билан ҳамқадам. – Тошкент: “Dizayn-Print”, 2022.-Б.200.
15. Аминов Ф. Бухоро вилоят телерадиокомпанияси тарихидан лавҳалар. Бухоро телерадиокомпанияси: Кеча ва бугун. – Бухоро: Дурдона, 2022. –Б.10-11.
16. Kakhramonovna, K. S. (2024). THE ROLE OF SPIRITUAL EDUCATION IN THE DEVELOPMENT OF THE NEW UZBEKISTAN. JOURNAL OF INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH, 1(3), 84-102.
17. Бухоро вилоят телерадиокомпанияси жорий архиви. 2023 йил 25-31-декабрь йиғма жилди, 21-варақ.

